



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

**“Aholiga ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-
sanitariya yordamini takomillashtirish”
mavzusidagi IV-xalqaro ilmiy-amaliy
anjumanning maqola va tezislari**

TO'PLAMI



Toshkent-2025

TAHRIRIYAT HAY’ATI

Boymurodov Sh.A

Azizova F.L.

Mamatkulov B.

Korneliya Bekker

Urazalieva I.R.

Oltiboev R. O.

“Aholiga ko‘rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini takomillashtirish” mavzusidagi ushbu IV-xalqaro ilmiy-amaliy anjuman zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, kasalliklarni erta aniqlash va ularning oldini olish, shuningdek, birlamchi bo‘g‘inda tibbiy yordamni tashkil etishning yangi yondashuvlarini muhokama qilishga bag‘ishlangan. Anjumanda profilaktika tamoyillarining ustuvorligi, epidemiologik xavflarga javob beruvchi innovatsion yechimlar, oilaviy shifokorlar faoliyatini takomillashtirish, sog‘lom turmush tarzi va gigiyena madaniyatini keng targ‘ib qilish, shuningdek, raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt va tibbiy sug‘urta tizimlarining amaliy ahamiyati bo‘yicha ilmiy maqolalar taqdim etilgan. Ushbu to‘plam birlamchi bo‘g‘inda tibbiy xizmat sifatini oshirish, aholining salomatlik darajasini yaxshilash va sog‘liqni saqlash sohasida samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

NEFTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MEHNAT SHAROITLARI VA ZARARLI OMILLARNI ANIQLASH USULLARI

Mamatova Sh.I., Azizova F.L.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti (Farg'ona, O'zbekiston)

Ushbu tadqiqot neftni qayta ishlash korxonalaridagi mehnat muhitining gigienik tavsifini, ayniqsa koks changi ta'sirini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Koks changi nafaqat nafas olish tizimi, balki yurak-qon tomir va asab tizimlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda koks changi manbaalari, ularning tarqalish xususiyatlari va texnologik qurilmalarni modernizatsiya qilish orqali zararni kamaytirish yo'llari yoritilgan. Ishlab chiqarishda ekologik xavfni pasaytirish va kasbiy kasalliklarning oldini olish maqsadida amaliy tavsiyalar berilgan.

Neftni qayta ishlash sanoati iqtisodiy taraqqiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Biroq bu sohadagi ishlab chiqarish jarayonlari ishchilarning sog'lig'iga ta'sir etuvchi qator zararli omillar bilan bog'liq. Ular ichida koks changi asosiy xavf manbai sifatida ajralib turadi. Bu chang ishchi muhiti havosida uzoq muddat saqlanishi va inson organizmiga kirishi orqali respirator hamda sistemali fiziologik buzilishlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, koks changi ta'sirini gigienik baholash va uni ishlab chiqarish jarayonida koks changi miqdorini kamaytirish choralarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodidagi texnologik jarayonlar davomida turli xil fizik va kimyoviy zararli omillar shakllanadi. Ulardan eng xavfli koks changi bo'lib, u neftni termik kreking, piroliz va kokslash jarayonlarida hosil bo'ladi. Bu jarayonlarda og'ir uglevodorod fraksiyalari yuqori haroratda parchalanib, uglerodga boy qattiq modda – neft koksi hosil bo'ladi.

Koks changi asosan quyidagi manbaalar orqali havoga tarqalishi aniqlandi: 1. Koksni maydalash va tashish uskunalari; 2. Silos va bunkerlar; 3. Pnevmatik uzatish tizimlari; 4. Termik jarayonlardagi destruksiya hodisalari.

Koks changi tarkibida 90–95% uglerod, 1–7% oltingugurt va og'ir metall elementlari mavjud. Bu moddalar nafas yo'llari orqali organizmga kirib, oksidlovchi stress va endotelial buzilishlarini keltirib chiqaradi. Gigienik o'lchovlar natijasida ishchi zona havosidagi chang miqdori ko'p hollarda me'yordan 1,5 miqdorgacha yuqori ekani aniqlangan.

Ish joylarida koks changi miqdorini kamaytirish uchun texnologik qurilmalarni modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy chang tozalash filtrlari, siklonli separatorlar va avtomatlashtirilgan yopiq siklli tizimlar yordamida chang miqdorini 70–80% gacha qisqartirish mumkin. Shuningdek, ventilyatsiya tizimlarini yangilash, chang manbaalarini lokal izolyatsiya qilish va ishchilarni zamonaviy respiratorlar bilan ta'minlash zarur.

Ishchilar sog'lig'ini muhofaza qilish maqsadida doimiy biomonitoring tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Bu tizim nafas olish va qon aylanish tizimlaridagi funksional o'zgarishlarni erta aniqlashga yordam beradi.

Xulosa. Farg'ona neftni qayta ishlash korxonalaridagi ishlab chiqarish muhitidagi koks changi ishchilar sog'lig'i uchun asosiy xavf manbai hisoblanadi. Texnologik qurilmalarni modernizatsiya qilish, samarali ventilyatsiya tizimlarini joriy etish, hamda doimiy sanitar-gigienik nazoratni kuchaytirish orqali bu xavfni kamaytirish mumkin. Ishchilarni shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash va to'liq tibbiy ko'rikni muntazam o'tkazish kasbiy kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.